

Ekologik turizm konsepsiyasi va uning jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy va falsafiy ahamiyati

Xamrayev Sardorbek Sharafutdinovich

Termiz davlat pedagogika instituti

Falsafa, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasi o'qituvchisi

«ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ ТУРИЗМ КОНЦЕПЦИЯ И ЕЁ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА

Хамраев Сардорбек Шарафутдинович

Преподаватель кафедры Философии, основ духовности и права

Термезский государственный педагогический институт

CONCEPT OF ECOLOGICAL TOURISM AND ITS SOCIAL AND PHILOSOPHICAL SIGNIFICANCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIETY

Khamraev Sardorbek Sharafutdinovich

*Lecturer at the Department of Philosophy, Fundamentals of
Spirituality, and Law*

Termiz State Pedagogical Institute

Annotatsiya: Maqolada ekologik turizmning ijtimoiy, falsafiy va madaniy jihatlarini, uning jamiyatga ta'siri va odamlarning tabiiy muhitga munosabati o'rganilgan hamda zamonaviy ekoturizmni o'rganishning obyektiv zarurati va subyektiv imkoniyatlari, ekoturizm tizimida shaxs ekologik tarbiyaviy madaniyatini oshirish motivlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Kalit so'zlar: ekologik turizm, jamiyat, ijtimoiy-falsafiy, turizm resurslari, turizm tarixi, turistik marshrutlar, O'zbekiston.

Аннотация: В статье рассматриваются социальные, философские и культурные аспекты экологического туризма, его влияние на общество и отношение людей к природной среде, а также объективная необходимость и субъективные возможности изучения современного экотуризма, научные исследования по мотивам повышения экологической воспитательной культуры личности в системе экотуризма.

Ключевые слова: экологический туризм, общество, социально-философский, туристические ресурсы, история туризма, туристические маршруты, Узбекистан.

Abstract: In the article, the social, philosophical and cultural aspects of ecological tourism, its impact on society and the attitude of people to the natural environment were studied, and scientific research was conducted on the objective necessity and subjective possibilities of studying modern ecotourism, and the motivations for increasing the ecological educational culture of the individual in the ecotourism system.

Key words: ecological tourism, society, socio-philosophical, tourism resources, tourism history, tourist routes, Uzbekistan.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

Ekoturizm – bu sayohatning o'ziga xos turi bo'lib, u atrofdagi tabiatga minimal ta'sir ko'rsatishga intiladi va shu bilan birga tashrif buyuruvchilarning uni saqlab qolish uchun chuqur mas'uliyat hissini

shakllantirishga yordam beradi. Tabiiy landshaftlar va ekotizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lish jarayonida odamlar nafaqat ularning go'zalligi va o'ziga xosligidan bahramand bo'lishadi, balki tabiat



Tel: +998 88 259 27 27

E-mail: asdp95@umail.uz

ORCID: 0009-0003-4010-3397

boyliklarini muhofaza qilishning ahamiyati va zarurligini ham anglaydilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕПАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ekologik turizmning ijtimoiy va falsafiy jihatlarini o'rganishda bir nechta asosiy adabiyotlardan foydalanilgan. Ushbu tadqiqotda ekologik turizm konsepsiyasining asosiy tushunchalari, rivojlanish tendensiyalari va atrof-muhitni himoya qilishning ahamiyati ko'rib chiqildi. Ekologik turizm bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, asosan, atrof-muhitni saqlash, tabiat resurslaridan samarali foydalanish va barqaror turizmning ijtimoiy va iqtisodiy ta'siri haqida to'plangan bilimlarga asoslangan.

Bir qator tadqiqotchilar ekologik turizmni barqaror rivojlanish modelining bir qismi sifatida ko'rishadi, u orqali nafaqat tabiatni saqlash, balki mahalliy jamiyatlarning iqtisodiy rivojlanishiga ham hissa qo'shish mumkin. Bularning orasida Gusakov Sergey Viktorovich, Gonzalez Mariya Izabel, Jekson Jon Robert kabi olimlar ekologik turizmning barqaror rivojlanish bilan bog'liq tahlillarini olib borishdi. Ushbu adabiyotlar ekologik turizmning shaxs va jamiyatga ta'sirini chuqur tahlil qilgan va uning jamiyatda ahamiyatini tushunishda yordam beradi. Bundan tashqari, ekologik turizmning falsafiy jihatlarini, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, ekologik tarbiya va madaniyat masalalari Harrison Jorj Tomas, Smith kabi tadqiqotchilar tomonidan chuqur yoritilgan. Ular ekologik turizmning nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishga ta'sirini ham ko'rsatishga harakat qilgan. Tadqiqot jarayonida tarixiylik tamoyili, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish, tasniflash, muammoviy-xronologik hamda fanlararo yondashuv kabi usullardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Turizm bugunga kelib jahon mamlakatlarining iqtisodiyotida katta daromad keltiradigan va jadal sur'atlarda rivojlanayotgan infratuzilma tarmoqlariga aylanib bormoqda. Hozir u jahon yalpi mahsuloti va iste'mol savdosining o'ndan bir qismini, dunyo eksportining 8 foizini, savdo xizmatining 30 foizini, xalqaro investisiyalarning 11 foizdan ortig'ini, ishlab chiqarishda esa har sakkiztadan bir ishchi o'rinni ta'minlamoqda. 2030 yilga borib yer kurrasida turizm sohasining eng jadal suratlarda rivojlanib borayotgan yangi sayyohlik yo'nalishlari – shop

turizm, ekoturizm, agroturizm, ekoturizm kabilar 2 barabarga ko'payishi ko'zda tutilmoqda[1, s. 144].

Bu borada Falsafa fanlari doktori X.Djurakulovning ilmiy-tadqiqot ishida quyidagicha statistik ma'lumotlar keltirib tahlil qilingan. Tahliliy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, ayni paytda umumiy turizm tizimida ekologik turizmning imkoniyatlari va rentabellik darajasi yanada o'sib bormoqda. Xususan, "Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT) va Butunjahon turizm tashkilotining (BTT) ma'lumotlari bo'yicha so'nggi 20 yil ichida endigina rivojlanib borayotgan davlatlarda ekoturistlar soni ko'payib va ekoturizmdan olinadigan daromadlar yildan-yilga o'sib bormoqda. Masalan, har yili ekoturizmdan Keniya davlati - 1.4 mlrd., Ekvador davlati-11.8 mlrd., Kosta-Rika davlati - 11.4 mlrd., Nepal davlati-1.5 mlrd. AQSH dollarida daromad oladilar. Qayd qilish lozimki, ushbu mamlakatlarning ekoturizmdan olgan daromadlari davlat yalpi ichki daromadlarining (YAIM) 70-80%iga teng[2].

Rivojlanib borayotgan davlatlarning turizm industriyasi asosan ekologik turizm hisobiga amalga oshirilmoqda. Ekspertlarning ma'lumotlariga qaraganda ekoturizm sayyohlik bozorining 10-20%ini qamrab olgan, o'sish surati esa umumiy turizm o'sish suratidan 2-3 marotaba oshib ketgan" [3].

Dunyoga mashxur nemis faylasuf olimi E.Gekkel 1866-yilda yozgan "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" va 1868-yilda yozgan "Dunyo vujudga kelishining tabiiy tarixi" kabi asarlarida ekologiya atamasiga to'liq tavsif berib ekologiyaaning ikkinchi ma'nosini "yashash joyi", "oziqlanish makoni" [5] deb belgilagan. Shuning uchun ham, tabiatni har bir inson o'z uyim deb bilgandagina global ekologik inqirozlarning oldini olishi mumkin. Ekologik turizm bu yo'nalishda insoniyatga katta yordam beradi. Shuning uchun ham, dastlab ekoturizmning mohiyatini va mazmunini yaxshi tushunib va o'rganib olishimiz lozim[4].

Rus olimasi M.V.Argunovanning fikricha, "Ekoturizm yosh avlodning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi tarkibida dunyoning tabiiy-ilmiy manzarasi to'g'risida yaxlit g'oyani shakllantirishga katta ahamiyat berilishi kerak. Hozirgi vaqtda talaba va o'quvchilarning ekologik tarbiyasi shaxsiy o'zini takomillashtirish zarurati sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jamiyatning turli qatlamlarida ekologik ta'limni zamonaviy sharoitda dolzarb

bo'lgan madaniy va axloqiy o'sish nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqish mumkin" [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqotlarimiz natijasida agroturizm qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi aniqlandi. Bular: 1) agroturizmda sayyohlarni qabul qilish uchun barcha qulayliklarga ega alohida mehmonxonalar talab etilmaydi, ular bevosita fermerlarning uylarida yoki ochiq havoda tashkil etiladigan chodir (palatka)larda joylashishlari ham mumkin. Bu turli toifaga mansub kishilarga arzon va sifatli, qulay agroturistik xizmatlardan foydalanish erkinligi beriladi. 2) agroturizm agroturistik firmalar uchun katta moliyaviy-iqtisodiy xarajatlar talab etilmaydi, chunki uni tashkil etishda sayyohlik obyekti sifatida qishloq aholisining turmush tarzi, urf-odatlaridan ham foydalanish mumkin. 3) agroturizmni tarixiy, ziyorat, sport, etnografik va shu kabi turizm yo'nalishlari bilan birgalikda olib borish samarali hisoblanadi. Zero sanab o'tilgan turizm turlari qadimdan aynan qishloq joylarida rivojlangan. Bunda turistlarni bir vaqtning o'zida qishloq joylarining tabiiy, tarixiy, ijtimoiy-madaniy jihatlari bilan tanishtirish imkonin yaratadi. 4) insonlarning tabiatga texnogen bosimi va ekologik talablarni inobatga olmasligi qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Shu nuqtai nazardan agroturizm ekoturizm singari o'zining rivojlanishi yo'nalishida qishloq xo'jaligida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, agrolandshaftlarni muhofaza qilish va buzilgan yerlarni qayta tiklashga bevosita va bilvosita yordam beradigan vazifalarni ham bajaradi [7].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, ekologik turizmning rivojlanishi atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy resurslarni tejash, ekologik tarbiya va ongni oshirishga yordam beradi. Bunda, turizmning o'ziga xos shakllari orqali, tabiatga zarar yetkazmasdan, uni to'g'ri boshqarish va undan foyda olish mumkin. Shuningdek, ekologik turizm jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, ayniqsa, qishloq va chekka hududlarda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilashga hissa qo'shadi. Falsafiy jihatdan, ekologik turizm insonning tabiatga bo'lgan munosabatini qayta ko'rib chiqish, uning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Shunday

qilib, ekologik turizmning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni muhim va u barqaror rivojlanishning ajralmas qismiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Nigmatov A.N., Kamolov B.X. Ekoturizm va uning hududiylik, davriylik va komplekslilik xususiyatlari (Namangan viloyati misolida). Monografiya. – Toshkent.: «Navro'z nashriyoti, 2018. – 144 b.
2. Ананьев М.А. Международный туризм. – М.: Международные отношения, 1998. – С 56-62.
3. Allcock A., Jones B., Lane S., Grant J. National ecotourism strategy. Commonwealth of Australia, 1994. – P. 196.
4. Аргунова, М.В. Экологическое образование в интересах устойчивого развития как надпредметное направление модернизации школьного образования: дис. ... д-ра пед. наук:13.00.02/М.В. Аргунова. – М., 2010. – 145 бет.
5. Ердаuletov С.Р. Казахстан туристский. – Алмата: Кайнар, 2000.
6. Xamrayev, S. (2024). Yangi O'zbekistonda ekologik turizm sohasini rivojlantirishni asosiy jihatlari. Solution of social problems in management and economy, 3(3), 23-27.
7. Xamrayev, S. (2024). FALSAFIY YONDASHUVNI YUZAGA KELITIRUVCHI OMILLAR. TAMADDUN NURI JURNALI, 6(57), 88-90.
8. Sardorbek Sharafutdinovich Xamrayev (2024). TURIZM ETIKASINING JAMIYATDAGI IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI. Academic research in educational sciences, 5NUU Conference (2), 753-758.
9. Хамраев Сардорбек Шарафутдинович (2022). O'ZBEKISTONDA EKOTURIZM BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYA JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASH ZARURATI. Восточный ренессанс: Инновационные, образовательные, естественные и социальные науки, 2 (12), 524-528.